

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ABLAZOVA KAMOLA SAXIBOVNA

**NORMAL TAQSIMOT VA NAZORAT KARTALAR ASOSIDA
TEXNOLOGIK JARAYONLARNI STABILLIGINI MODELLASHTIRISH**

05.01.07 — Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Ablazova Kamola Saxibovna

Normal taqsimot va nazorat kartalar asosida texnologik jarayonlarni stabilligini modellashtirish.....5

Аблазова Камола Сахибовна

Моделирование стабильности технологических процессов на основе нормального распределения и контрольных карт21

Ablazova Kamola Saxibovna

Modeling the stability of technological processes based on normal distribution and control charts..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI**

ABLAZOVA KAMOLA SAXIBOVNA

**NORMAL TAQSIMOT VA NAZORAT KARTALAR ASOSIDA
TEXNOLOGIK JARAYONLARNI STABILLIGINI MODELLASHTIRISH**

05.01.07 — Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T3646 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.airi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Axmedov Soxibjon Akbarovich**
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Raxmonov Zafar Ravshanovich**
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Muradov Farrux Abdukaxarovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc13/30.12.2021.T.142.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «27» 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 dahasi, 17A-uy. tel.: (99871) 263-41-98, e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 dahasi, 17A-uy. tel.: (99871) 263-41-98).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «15» dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «10» dekabr dagi 19-raqamli reestr bayonnomasi)



N.Ravshanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa fan doktori (Phd) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda bugungi kunda texnologik jarayonning stabilligini ta'minlash bilan mahsulotlar sifatini oshirish ilmiy va amaliy ahamiyatga molik vazifalardan hisoblanadi. Ushbu keng faoliyatli sohaning amaliy muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy vositalarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Bunday masalalar bilan dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan AQSh, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Koreya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarning ilmiy–texnik hodimlari dolzarb ahamiyatga ega masalalar sifatida shug'ullanib kelmoqda.

Dunyoda rivojlangan korxonalarda ko'p sonli bir jinsli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bunday mahsulotlarning sifatini oshirishga qaratilgan texnologik jarayonning stabilligini aniqlashning bir qancha nazariy va amaliy modellari yaratilgan. Hozirda texnologik jarayonlarning stabilligini o'rganishning nazorat kartalar modelini takomillashtirish, sonli algoritmlar va dasturiy vositalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamizda yuqoridagi muammolar qo'shma korxonalarining kirib kelishi bilan yuzaga keldi. Texnologik jarayonning stabilligini aniqlash bo'yicha bu korxonalarda ISO standartlari yoki ayrim mamlakatlarning standartlari ishlatiladi. 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida: «...sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish, prognoz qilish...»¹ deb qayd etilganidek ishlab chiqarishda sifatsiz mahsulotlar miqdorini kamaytirish orqali korxonalar va zavodlar faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturiy vositalarni ishlab chiqish texnologiyalarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909 sonli, matematika va uning tadbirlarini ishlab chiqarishga tadbir etish faoliyatiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-sonli, 2019 yil 9 oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish tamoyilini tasdiqlash to'g'risida»gi qaror va farmonlari, 2020 yil 7 maydagi «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4708-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldagi «Innovatsion faoliyat to'g'risidagi» 630-sonli O'RQ, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 60-son kabi farmonlarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya taqdiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-6-sonli Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlarga mosligi. Tadqiqotimiz respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VIII yaʼni «Mashinasozlik texnologiyalari» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mahsulot sifatini statistik metodlar bilan boshqarish muammolari hal etish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari bilan xorijda amerikalik ilmiy-amaliyotchi olimlari U.Shuxart, E.Deming, D.Djuran va boshqalar shugʻullangan boʻlib, ular nazorat kartalar usulini sifatni statistik taʼminlashda qoʻllashib yuqori natijalarga erishgan. Bu masalalar statistik gipotezalarni tekshirish prinsipi bilan bogʻlanganligi sababli D.Neyman, E.Pirson, A.Fisher va A.Vald kabi olimlarning ishlaridan nazorat kartalarni qurishda foydalanish mumkin boʻladi. Aytish joizki A.N.Kolmogorov, Y.K.Belyaev, B.V.Gnedenko, L.N.Bolshev, N.V.Smirnov, D.Ximmeloblu, E.Shindovskiy, O.Shyurts, R.Shtorm, B.Xensen, G.Tagutu kabi olimlarining nazariy va amaliy ishlari ham bu yoʻnalishni rivojlanishiga hissasi katta boʻlgan. Hozirda nazorat kartalar metodining rivojlanishi va yoʻnalishdagi ilmiy-uslubiy ishlarning koʻpayishiga B.Vudal, Y.P.Adler, D.Montgomeri, X.Y.Mittag, X.Rinne, V.A.Shper, S.F.Julinskiy, M.Asram, B.Kosta, R.Kuinino, D.Uiler, D.Chambers kabi olimlarning maqola va kitoblari katta foyda bermoqda. Shu sababli nazorat kartalar yordamida jarayonlarni oʻrganish boʻyicha ilmiy ishlarning soni ortib bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida texnologik jarayonlarning stabilligini taʼminlashda akademik S.X.Sirojiddinov maktabida qabul nazoratining baʼzi masalalari tahlil qilingan, akademik Sh.Q.Farmonov tavsiyasi bilan joriy nazorat boʻyicha texnologik jarayonlarni stabilligini aniqlash boʻyicha ushbu dissertatsiyada yangi natijalarni keltirmoqdamiz.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatdiki, ishlab chiqarish jarayonida Shuxartning nazorat kartalari yordamida texnologik jarayonning turgʻunligini taʼminlovchi modellar bilan stabil texnologik jarayon hosil qilishga harakat qilingan. Bu metod ishlab chiqarish korxonalarida, tibbiyotda, maʼorifda, davlat boshqaruvida, kichik va oʻrta biznesda va boshqa sohalarda qoʻllanila boshlandi. Stabillikni taʼminlovchi nazorat kartalarga asoslangan matematik modellar esa topilmagan. Shu ochiq qolgan muammolarni hal qilishga qaratilgan harakatlar bilan dissertatsiyadagi natijalar hosil boʻldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy-taqdidot ishlari rejasining «Amaliy tadqiqotlar» tarmogʻi doirasida bajarilgan va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan IL-52421091471 «IoT konsepsiasi asosida suv resurslarini monitoring qilish apparat-dasturiy vositasini ishlab chiqish» (2022-2023) tadqiqot ishlariga qoʻllanilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Normal taqsimot bilan modellashtirilgan texnologik jarayonlarning stabilligini aniqlovchi matematik modellar ishlab chiqish, sonli algoritmlar hamda dasturiy majmua yaratish va amalda qoʻllashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asimmetriya va eksess, Kolmogorov hamda Smirnov kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini bitta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqish;

Smirnov, Styudent va Fisher kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini ikki yoki uchta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan matematik modellarni amalda ishlatishni osonlashtiruvchi sonli algoritmlar, dasturiy majmua yaratish va texnologik jarayonlardagi ba'zi keyslarni tahlil qilishda ishlatish.

Tadqiqotning obyekti. Ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarilayotgan, normal taqsimot bilan tavsiflangan texnologik jarayonlar.

Tadqiqotning predmeti. Normal taqsimot bilan tavsiflangan texnologik jarayonlar stabilligi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, kuzatish ma'lumotlarini statistik qayta ishlash, sonli va kompyuterli modellashtirish, nazorat karta bilan texnologik jarayonning stabilligini aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

asimmetriya va eksess, Kolmogorov hamda Smirnov kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini bitta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqilgan;

Smirnov va Styudent kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini ikkita ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqilgan;

Smirnov va Fisher kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini uchta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqilgan;

texnologik jarayonning stabilligini bitta va ikki-uchta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalarga asoslangan matematik modellarga asosan sonli algoritmlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari «UZ Auto Motors» AJdagi Payvandlash sexida ikki panel orasidagi qo'yimni nazorat qilish operatsiyasida texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashga tadbiiq etilgan.

«UZ Auto Motors» AJdagi Bo'yash sexida avtomobil korpusini grunтовka qilish operatsiyasidagi texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashga tadbiiq etilgan.

qurol ishlab chiqarish zavodining gilzalar tayyorlash texnologik operatsiyasida gilzaning qo'nuvchi nominal diametrini qo'yimini nazorat qilish operatsiyasidagi texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Nazorat kartalarning chegaralarini topishga oid tasdiqlarning isbotlari nazorat kartalarning nazariy asoslariga tayangan holda ishonchli intervallar metodlari yordamida aniqlandi. Nazorat

kartalarni noma'lum parametrlari sonli usullar yordamida baholangan yoki sonli usullar metodlari asosida tuzilgan jadvallardan topildi. Keyslarni va texnologik jarayonning stabiligini nazorat kartalarga asoslangan statistik modelini tahlil qilish sifatini statistik ta'minlash tamoyillariga mos bajarilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazorat kartalar metodining potentsial imkoniyatlarini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar va dasturiy majmua yordamida texnologik jarayonning va shu kabi boshqa jarayonlarning stabiligini aniqlashda hamda mahsulotlarning sifatini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi «UZ Auto Motors» AJdagi payvandlash va bo'yash sexlarida texnologik jarayonlarning stabiligini ta'minlash natijalari asosida quyidagi natijalarga erishilgan:

texnologik jarayonning stabiligini aniqlash ishlab chiqilgan asimmetriya va eksess, Kolmogorov hamda Smirnov nazorat karta matematik modellari payvandlash sexi ob'ektida qo'llanilgan. Sexdagi o'lchash ma'lumotlaridan ilmiy natijalar asosida texnologik jarayonning stabiligi tekshirilgan va baholangan (O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati hokimligining 2023 yil 28-apreldagi №11/37-238-sonli ma'lumotnomasi). Natijada payvandlash sexida nuqsonlar ulushi hisoblanganda 19,8% ya'ni 80,2% maqsad bilan ish topshirilgan. Zavoddagi G.S.I.P dasturi bo'yicha payvandlash sexidan olingan 80% maqsad bilan taqqoslaganda bizning natijalarimiz bilan deyarli ustma-ust tushganligi imkonini bergan;

texnologik jarayonning stabiligini aniqlash ishlab chiqilgan asimmetriya va eksess, Kolmogorov hamda Smirnov nazorat karta matematik modellari bo'yash sexi ob'ektida qo'llanilgan. Sexdagi o'lchash ma'lumotlaridan ilmiy natijalar asosida texnologik jarayonning stabiligi tekshirilgan va baholangan (O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati hokimligining 2024 yil 12-dekabrdagi №06/20-101-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'yash sexida nuqsonlar ulushi hisoblanganda 13,7% ya'ni 86,3% maqsad bilan ish topshirilgan. Zavoddagi G.S.I.P dasturi bo'yicha bo'yash sexidan olingan 86% maqsad bilan taqqoslaganda bizning natijalarimiz bilan deyarli ustma-ust tushganligi imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta halqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan 9 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlardagi jurnal maqolalari. Jumladan, 4 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda 1ta EHM uchun yaratilgan dasturiy majmuani qayd qilish uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Texnologik jarayonlarni stabiligini statistik metodlar bilan aniqlashning zamonaviy holati va tizimli tahlili**» nomli I-bobda texnologik jarayondagi texnologik operatsiyalarda chiqayotgan mahsulotlarni sifatini statistik ta‘minlashda texnologik jarayonning stabil bo‘lishi muhim xususiyat ekanligi va uni ta‘minlash yo‘nalishidagi bir qator adabiyotlar tahlili keltirilgan. Jahonda keyingi yillarda ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning holatiga oid adabiyotlar sharhi bayon qilingan.

1.1- paragrafda TJning stabiligini, turg‘unligi, aniqligi va qayta tiklanuvchanlik xususiyatlarining sifatini statistik ta‘minlashdagi ahamiyati haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Texnologik jarayonning bunday xususiyatlarini nazorat qilishda Shuxart nazorat karta modeli va boshqa modellarning roli ko‘rsatilgan.


Aytaylik, X aniq bir mahsulotning ishchi xarakteristikasi, τ -uning muhandis belgilagan nominal qiymati va $[\tau - \Delta\tau; \tau + \Delta\tau]$ andoza (qo‘yim) bo‘lsin. Muhandislik tamoyili bo‘yicha $X \in [\tau - \Delta\tau; \tau + \Delta\tau]$ bo‘lganda mahsulot yaroqli aks holda yaroqsiz yoki ta‘mirlashga muhtoj bo‘ladi. Shuxart turg‘un jarayonni X son belgisining deyarli barcha qiymatlari «Olti sigma» uzunlikka ega ($a - 3\sigma, a + 3\sigma$) intervalga joylashishi haqidagi g‘oyani asoslagan, bunda $a = M(X)$ - X ning matematik kutilmasi, $\sigma = \sqrt{D(X)}$ - X ning o‘rta kvadratik og‘ishi.

Amaliyotda interval chegaralaridagi parametrlar baholanib topiladi: X ning qiymatlari belgilangan birlik $t = 1, 2, \dots, l$ vaqtlarda o‘lchanib n hajmli (X_1, X_2, \dots, X_n) oniy tanlanmalar olingan bo‘lsa, $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i$ - tanlanma o‘rta qiymat va \tilde{X} tanlanma mediana a ning baholari; $S_n^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2$ tuzatilgan tanlanma dispersiya va $R = X_{max} - X_{min}$ variatsiya qulochi σ ning baholaridan iborat bo‘ladi. $n > 50$ da Shuxartning olti sigma uzunlikdagi intervali taxminan quyidagicha topiladi:

($\bar{X} - 3S; \bar{X} + 3S$), kichik n larda esa interval chegaralari maxsus jadvallardan aniqlanadi. Shuxart sifat bilan bog‘liq $g = g(X_1, X_2, \dots, X_n)$ (xususan \bar{X}, \tilde{X}, R, S) statistikaning qiymatlarini ($a - 3\sigma, a + 3\sigma$), $a = M(g)$; $\sigma = \sqrt{D(g)}$ intervalga tushishini nazorat qiladi. Agar tushsa jarayonni turg‘un aks holda turg‘un emas deb hisoblaydi.

Gorizontal o‘qda tanlanma olishning birlik $t = 1, 2, \dots, l$ vaqtlaridagi nomerlarini, vertikal o‘qda t ga mos g ning g_t qiymatini belgilab, tekislikda $(t; g_t)$ nuqtalarni topib kesmalar bilan birlashtiramiz. Vertikal o‘qdagi $LCL_g =$

$a - 3\sigma$, $CL_g = a$ va $UCL_g = a + 3\sigma$ nuqtalardan gorizontal o‘qqa parallel to‘gri chiziqlarni bo‘laklarini o‘tkazamiz. Hosil bo‘lgan diagramma g -nazorat karta deyiladi. Quyidagi 1-rasmda shunday nazorat kartalardan birining eskizi chizilgan:



1-rasm. g –nazorat karta diagrammasi.

1-rasmda $t = 1 - 7, 9, 10$ dagi tanlanmalarda jarayon turg‘un $t = 8$ da esa noturg‘un holatda.

Shuxart nuqtalar strukturasi nazorat kartani quyi va yuqori chegaralari deb ataluvchi LCL va UCL hamda o‘rta chiziq deb ataluvchi CL chiziqlarga nisbatan joylashuviga qarab jarayonni stabiligini aniqlash qoidalarini yaratdi.

1.2- paragrafda texnologik jarayonning stabiligini aniqlash yo‘nalishida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining mazmunlari va imkoniyatlari, 1.3- paragrafda dissertatsiya muammosining paydo bo‘lishi tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Texnologik jarayonning stabiligini bitta ko‘rsatkich bilan aniqlovchi matematik modellar**» nomli ikkinchi bobida bir o‘lchamli normal X son belgining zichlik funksiyasi tanlanma olish vaqtlari davomida standart formasini saqlashni tekshirib turuvchi (ya‘ni texnologik jarayonning stabiligini aniqlab boruvchi) asimmetriya-eksess va Kolmogorov yoki Kolmogorov-Smirnov tipidagi statistikasi asosida topilgan nazorat kartalarga asoslangan matematik modellar qurilgan. Bu nazorat karta modellari texnologik jarayonning stabiligini ta‘minlaydi.

Aytaylik texnologik jarayondagi texnologik operatsiyalarda chiqayotgan mahsulot sifatini aniqlovchi X son belgining taqsimoti $\mu_0 = M(X)$; $\sigma_0^2 = D(X)$ parametrli normal qonunga bo‘ysunsin: $X \sim N(\mu_0; \sigma_0^2)$. Ishlab chiqarishda μ_0 va σ_0^2 parametrlar texnik standart sifatida beriladi yoki dastlabki tanlanmalar asosida, texnologik jarayon statistik nazoratda bo‘lganda, baholanib topiladi.

Birlik $t = 1, 2, \dots, l$ vaqtlarda X dan n hajmli $\mathbf{X} = (x_{1t}, x_{2t}, \dots, x_{nt})$ oniy tanlanmalar olamiz. Bunda X -texnologik jarayonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bitta ko‘rsatkichini ifodalaydi, $x_{1t}, x_{2t}, \dots, x_{nt}$ lar belgilangan $t = 1, 2, \dots, l$ birlik vaqtdagi X ning o‘lchash natijalarini bildiradi.

Texnologik operatsiyalarda oddiy (tasodifiy) yoki muhim sabablarga ko‘ra jarayon stabil holatdan chiqib ketishlari kuzatiladi (ya‘ni μ_0 va σ_0^2 dan chetlanish bo‘ladi). Statistik metodlar bilan texnologik jarayon holatini to‘g‘ri baholab borish

uchun \mathbf{X} , $t = \overline{1;l}$ tanlanmalar asosida $X \sim N(\mu_0; \sigma_0^2)$ holatni tekshirib borish zarur bo'ladi. Matematik statistikada bu holat \propto qiymatdorlik darajasida quyidagi gipotezalarni tekshirish bilan amalga oshiriladi:

$$H_0: P(X < x) = F(x; \mu_0; \sigma_0^2); H_1: P(X < x) \neq F(x; \mu_0; \sigma_0^2).$$

Birlik $t = 1, 2, \dots, l$ vaqtlarda X dan olingan \mathbf{X} oniy tanlanmalar asosida topilgan tanlanma o'rta qiymat \bar{X}_{nt} , tuzatilgan tanlanma dispersiya (S_{nt}^2), tanlanma asimmetriya koeffitsiyenti (a_{nt}) va tanlanma eksess koeffitsiyenti (γ_{nt})larini odatdagidek aniqlaymiz:

$$\bar{X}_{nt} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n X_{kt}; S_{nt}^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{k=1}^n (X_{kt} - \bar{X}_{nt})^2;$$

$$a_{nt} = \frac{1}{nS_{nt}^3} \sum_{k=1}^n (X_{kt} - \bar{X}_{nt})^3; \gamma_{nt} = \frac{1}{nS_{nt}^4} \sum_{k=1}^n (X_{kt} - \bar{X}_{nt})^4.$$

a_α va γ_α lar mos ravishda a_n va γ_n lar taqsimotlarining \propto qiymatdorlik darajasidagi kvantillari bo'lsin. $Ch\{*\mid n-1\}$ - bilan ozodlik darajasi $n-1$ bo'lgan χ^2 taqsimotini belgilaymiz.

Texnologik jarayon stabiligining «Asimmetriya-eksess» matematik modeli:

Agar belgilangan birlik $t = \overline{1;l}$ vaqtlardagi ($X_{1t}, X_{2t}, \dots, X_{nt}$) tanlanmalar uchun quyidagi munosabat o'rinli bo'lsa texnologik jarayon stabil bo'ladi:

$$S_{nt}^2 > LCL_a = \sqrt[3]{\frac{\bar{\mu}_3^2}{a_{0,995}^2}} \quad \text{va} \quad S_{nt}^2 < UCL_\gamma = \sqrt{\frac{\bar{\mu}_4}{\gamma_{0,005}}} \quad (1)$$

$$\text{Bunda } \bar{\mu}_3 = \frac{1}{m} \sum_{t=1}^m \mu_{3t}, \mu_{3t} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n (X_{kt} - \bar{X}_{nt})^3; \bar{\mu}_4 = \frac{1}{m} \sum_{t=1}^m \mu_{4t},$$

$$\mu_{4t} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n (X_{kt} - \bar{X}_{nt})^4. \quad (2\text{-rasmga qaralsin})$$

Ushbu (1) matematik modelning parametrlarini taqribiy hisoblash sonli usullarga asoslanib topiladi. Real holatlarda ularni aniqlash dissertasiyaning IV - bobidagi dasturiy majmualarga joylaganmiz.

Ushbu matematik model diagrammasini hosil qilish va texnologik jarayonning stabiligini aniqlash sonli algoritmini ishlab chiqilgan. Bu algoritim asosida dasturiy majmua yaratilgan.

α – nazorat karta chegarasini aniqlash:

- 1) ishlab chiqarishning boshlang'ich fazasining $t = \overline{1;m}$ birlik vaqtlarida oniy tanlanmalarni hosil qilamiz va \bar{X}_{nt} larni aniqlaymiz;
- 2) $t = \overline{1;m}$ momentlarda μ_{3t} larni topamiz;
- 3) topilgan μ_{3t} qiymatlarning o'rta arifmetigi $\bar{\mu}_3$ aniqlanib $\bar{\mu}_3^2$ ni hosil qilamiz. Natijani $a_{0,995}^2$ kvantilga bo'lib kub ildiz chiqarib LCL_a ni aniqlaymiz va Dekart koordinatalar sistemasida nazorat kartaning quyi chegarasini chizamiz;

γ – NK chegarasini aniqlash:

- 4) 1) dagi ma'lumotlar asosida $t = \overline{1;m}$ momentlarda μ_{4t} larni aniqlaymiz;

5) topilgan qiymatlarning o'rtacha arifmetigi $\bar{\mu}_4$ topiladi va $\gamma_{0.005}$ kvantil bo'lib kvadrat ildiz chiqarilib UCL_γ ni aniqlaymiz va Dekart koordinatalar sistemasida NKning yuqori chegarasini chizamiz;

Texnologik jarayonning stabiligini aniqlovchi S_{nt}^2 ning qiymatlarini aniqlash:


6) endi ishlab chiqarishdan $t = \overline{1; l}$ birlik vaqtlarda oniy tanlanmalarni olib \bar{X}_{nt} larni aniqlaymiz;

7) $t = \overline{1; l}$ birlik vaqtlardagi tanlanmalarga asosan S_{nt}^2 ning qiymatlarini topamiz va Dekart koordinatalar sistemasida qiymatlarini belgilaymiz;

Texnologik jarayonning stabiligini tahlil qilish:

8) agar hosil bo'lgan $a - \gamma$ qo'shaloq nazorat karta diagrammasida $t = \overline{1; l}$ birlik vaqtlarda $LCL_a < S_{nt}^2 < UCL_\gamma$ tengsizlik o'rinli bo'lsa texnologik jarayon stabil bo'ladi, aks holda nostabil bo'ladi.

Quyida (1) matematik modelning namunaviy diagrammasini keltiramiz. Bunda texnologik jarayonning stabiligining tahlili rasmga mos ravishda keltirilgan.



2-rasm. $a - \gamma$ nazorat karta matematik model diagrammasi.

Rasmda yuqoridagi (1) tengsizlikni qanoatlantiruvchi nuqtalar zangori siniq chiziq bilan, agar qanoatlantirmaydiganlari ham bo'lsa qizil siniq chiziq bilan belgilangan. Yashil chiziq stabil, qizil chiziq nostabil texnologik jarayonni ko'rsatadi. Bunda yuqoridagi rasm asimmetriyani, pastdagisi eksses holatini bildiradi.

(1) matematik model dissertasiyaning 2.1-paragrafdagi keltirilgan quyida 2.1-teorema va 2.2-teoremlariga asoslanib qurilgan. Bunda nazorat kartaning nazorat qilinuvchi miqdori $g(X_t) = S_{nt}^2$ kabi bo'ladi.

2.1-teorema. $\alpha = 0,01$ va $H_0: P(X < x) = F(x; \mu_0; \sigma_0^2)$ gipoteza o'rinli bo'lganda a -NK quyi nazorat chegarasi $LCL = 3 \sqrt{\frac{\bar{\mu}_3^2}{a_{0,995}^2}}$ ga teng. Hamda a -nazorat karta quvvat funksiyasi $G_a(\sigma_t) = P(S_{nt}^2 \leq LCL) = Ch \left\{ \frac{n-1}{\sigma_t^2} 3 \sqrt{\frac{\bar{\mu}_3^2}{a_{0,995}^2}} | n-1 \right\}$ ga teng bo'ladi.

2.2-teorema. $\alpha = 0,01$ va H_0 gipoteza o'rinli bo'lganda γ -nazorat kartaning nazorat chegaralari $LCL = \sqrt{\frac{\bar{\mu}_4}{\gamma_{0,995}}}$; $UCL = \sqrt{\frac{\bar{\mu}_4}{\gamma_{0,005}}}$ ga teng. γ -nazorat kartaning quvvat funksiyasi esa $G_\gamma(\sigma_t) = P(S_{nt}^2 \geq UCL) = 1 - Ch \left\{ \frac{n-1}{\sigma_t^2} \sqrt{\frac{\bar{\mu}_4}{\gamma_{0,005}}} | n-1 \right\}$ ga teng bo'ladi.

2.2-paragrafda X son belgining taqsimoti $N(\mu_0; \sigma_0^2)$ va $N(\hat{\mu}_0; \hat{\sigma}_0^2)$, bo'lgan hollarda Kolmogorov hamda Kolmogorov-Smirnov tipidagi kriteriyalar asosida nazorat karta quramiz, bunda $\hat{\mu}_0$ va $\hat{\sigma}_0^2$ mos ravishda μ_0 va σ_0^2 larni eng «yaxshi» baholari. Bunda agar $X \sim N(\mu_0; \sigma_0^2)$ bo'lsa $k_{1-\alpha}$ -statistika taqsimoti kvantilini Kolmogorov taqsimoti jadvalidan, $X \sim N(\hat{\mu}_0; \hat{\sigma}_0^2)$ da esa $k_{1-\alpha}^c$ -Kolmogorov-Smirnov tipidagi statistikasi taqsimoti jadvalidan topiladi.

X dan olingan $\mathbf{X} = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ tanlanmadan $\mathbf{X}^* = (x^*_1, x^*_2, \dots, x^*_n)$ variatsion qator tuzamiz. Hamda α qiymatdorlik darajasida quyidagi gipotezalarni tekshiramiz: $H_0: P(X < x) = F(x; \bar{X}_n; S_n^2)$; $H_1: P(X < x) \neq F(x; \bar{X}_n; S_n^2)$. Gipotezalar quyidagi kriteriy yordamida tekshiriladi: $D_n(\hat{\mu}_0, \hat{\sigma}_0^2) = \sqrt{n} \rho$. Agar $D_n(\hat{\mu}_0, \hat{\sigma}_0^2) < k_{1-\alpha}^c$ bo'lsa H_0 qabul qilinadi, aks holda H_1 . Bunda $k_{1-\alpha}^c$ Kolmogorov-Smirnov tipidagi taqsimoti kvantillar jadvalidan aniqlanadi.

Texnologik jarayon stabiligining ρ^c –nazorat karta matematik modeli:

Agar birlik $t = \bar{1}; \bar{l}$ momentlarda to'plangan $\mathbf{X}^* = (x^*_1, x^*_2, \dots, x^*_n)$ tanlanmalar uchun quyidagi munosabat o'rinli bo'lsa:

$$\rho_t^c = \max_{1 \leq k \leq n} \left| \Phi(Y_{kt}^*) - \frac{2k-1}{2n} \right| + \frac{1}{2n} < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}} = UCL_{\rho^c} \quad (2)$$

u holda texnologik jarayon stabil holatda bo'ladi.

(2) matematik model parametrlari hisoblash usullariga asoslanib topiladi. Real holatlarda ularni aniqlash dissertasiyaning IV- bobidagi dasturiy majmualarga joylaganmiz. Masalan, $k_{0,99}^c$ Smirnov taqsimoti kvantili bo'lib tenglama ildizi sifatida taqribiy topiladi, jumladan, $k_{0,99}^c = 1,035$.

Ushbu (2) matematik model diagrammasini hosil qilish va texnologik jarayonni stabiligini aniqlash sonli algoritmini ishlab chiqilgan. Bu algoritm asosida dasturiy majmua yaratilgan.

ρ^c –NK chegarasini aniqlash:

1) Smirnov taqsimoti kvantillari jadvalidan $k_{0,99}^c$ ni aniqlab \sqrt{n} ga bo‘lib UCL_{ρ^c} ni aniqlaymiz va Dekart koordinatalar sistemasida nazorat kartaning yuqori chegarasini chizamiz;

Texnologik jarayonning stabiligini aniqlovchi ρ_t^c ning qiymatlarini aniqlash:


2) $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlarda X^* ; \bar{X}_n va S_n larni aniqlaymiz;

3) texnologik jarayon stabiligini aniqlovchi ρ_t^c larni $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlarda hisoblaymiz va qiymatlarini Dekart koordinatalar sistemasida belgilaymiz.

Texnologik jarayonning stabiligini tahlil qilish:

4) agar $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlarda $\rho_t^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}}$ tengsizlik o‘rinli bo‘lsa texnologik jarayon stabil bo‘ladi aks holda nostabil bo‘ladi.

Quyida (2) matematik modelning namunaviy diagrammasini keltiramiz. Bunda texnologik jarayonning stabiligining tahlili rasimga mos ravishda keltirilgan.



3-rasm. ρ^c –nazorat karta matematik modeli diagrammasi.

Rasmda yuqoridagi (2) tengsizlikni qanoatlantiruvchi nuqtalar zangori siniq chiziq bilan, agar qanoatlantirmaydiganlari ham bo‘lsa qizil siniq chiziq bilan belgilangan. Yashil chiziq stabil, qizil chiziq nostabil texnologik jarayonni ko‘rsatadi.

(2) matematik model dissertasiyaning 2.2-paragrafda bir tomonlama chegaraga ega ρ^c -nazorat kartaning chegaralarini topishga oid quyida keltirilgan teoremaga asoslanib qurilgan. Bunda nazorat kartaning nazorat qilinuvchi miqdori $g(X_t) = \rho_t^c$ kabi bo‘ladi.

2.3-teorema. $\alpha = 0,01$ va $H_0: P(X < x) = F(x; \bar{X}_n; S_n^2)$ gipoteza o‘rinli bo‘lsa, u holda ρ^c -nazorat karta uchun nazorat qilinuvchi miqdor ρ_t^c va $UCL_{\rho^c} = \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}}$ kabi topiladi.

2.3-paragrafda avtomobil zavodining payvandlash va bo'yash sexlaridagi muammolarni o'rganish uchun olingan ma'lumotlar $a - \gamma$ hamda ρ -nazorat karta, ρ^c -nazorat karta modellari bilan normallikka tekshirish (ya'ni texnologik jarayon stabiligini aniqlash) keltirilgan. Hosil bo'lgan natijalarda IV-bob 4.3-paragrafdagi keyslarni tahlil qilishda ishlatiladi.

Dissertatsiyaning «**Texnologik jarayonning stabiligini ikki yoki uchta ko'rsatkich bilan aniqlovchi matematik modellar**» nomli III-bobida sistema komponentalarining bog'liqmas yoki chiziqli bog'liqligiga qarab qo'shaloq yoki uchlangan nazorat karta modellari bilan ish ko'riladi.

3.1-paragrafda ikki o'lchamli son belgilarni normalligi haqidagi gipotezalarni tekshiruvchi muvofiqlik kriteriyalarini, agar bu ikki o'lchamli normal bo'lsa, uni tekshirishni bir o'lchamli nazorat kartalarga keltirish mumkin ekanligi haqidagi mulohazalarni to'g'ri ekanligi asoslangan.

3.2-paragrafda Kolmogorov, Smirnov va Styudent kriteriyalariga asoslangan texnologik jarayonning stabiligini aniqlovchi nazorat kartalar matematik modeli qurilgan. Natijalarni keltirish uchun zaruriy tushunchalarni keltiramiz.

(X, Y) bosh to'plamdan n juft tanlanma olamiz:

$$(\bar{X}, \bar{Y}) = \{(x_1, y_1); (x_2, y_2), \dots, (x_n, y_n)\}.$$

$\rho(x, y)$ bilan X va Y orasidagi nazariy korrelyatsiya koeffitsiyenti, $r(x, y)$ esa tanlanma korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'lsin.

Amaliyotda X va Y ning bog'liqsizligi quyidagi gipotezalarni tekshirish bilan amalga oshiriladi: $H_0: \rho(X, Y) = 0$; $H_1: \rho(X, Y) \neq 0$.

Agar H_1 gipoteza o'rinli bo'lib, (X, Y) normal bo'lsa u holda X va Y ning chiziqli bog'liqligi quyidagi gipotezalarni tekshirishga keladi: $H_0^*: \rho(X, Y) = \rho_0$; $H_1^*: \rho(X, Y) \neq \rho_0$. Bunda ρ_0 $\rho(x, y)$ ning olg'a surilgan qiymati bo'lib, u X va Y ning chiziqli bog'liqlik darajasini belgilaydi.

H_0 va H_1 gipotezalarni tekshirish uchun $\tilde{T} = \frac{r(x, y)\sqrt{n-2}}{\sqrt{1-r^2(x, y)}}$ kriteriy olinadi. H_0 gipoteza o'rinli bo'lganda \tilde{T} $n - 2$ ozodlik darajali Styudent taqsimotiga bo'ysunadi va $|\tilde{T}| < t(\alpha, n - 2)$ da H_0 gipoteza aks holda H_1 gipoteza o'rinli bo'ladi, bunda $t(\alpha, n - 2)$ Styudent taqsimoti kritik nuqtalari jadvalidan topiladi. H_0^* gipotezani tekshirishda R.A.Fisherning quyidagi tanlanma funksiyasidan foydalaniladi: $W = \frac{1}{2} \ln \frac{1+r(x, y)}{1-r(x, y)} = \operatorname{argth}(r(x, y))$.

H_0^* o'rinli bo'lganda W ning taqsimoti asimptotik normal bo'lib, taqsimot parametrlari uchun $n \geq 20$ da quyidagi taqribiy baholar o'rinli bo'ladi:

$$M(W) \approx \frac{1}{2} \ln \frac{1+\rho_0}{1-\rho_0} + \frac{\rho_0}{2(n-3)}, D(W) \approx \frac{1}{n-3}.$$

Bunda $Z_W = \frac{W - M(W)}{\sqrt{D(W)}} \sim N(0, 1)$ bo'lib, taqsimot funksiyasini $\phi(x)$ kabi belgilanadi. Agar $Z_W < \psi(\alpha)$ (bunda $\psi(\alpha) \sim N(0, 1)$ taqsimot kvantili) bo'lsa H_0^* qabul qilinadi, aks holda H_1^* o'rinli.

Agar (X, Y) sistema komponentalari bog'liqmas bo'lsa, u holda texnologik jarayonning stabiligini aniqlash modeli quyidagicha bo'ladi:

TJ stabiligining $\rho_x - \rho_y$ nazorat karta matematik modeli:

Agar $n \geq 20$ bo'lib $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlardagi

$(\overline{X}, \overline{Y}) = \{(x_1, y_1); (x_2, y_2), \dots, (x_n, y_n)\}$ tanlanmalar uchun quyidagi

$$\text{munosabatlar } \rho_x^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}} \text{ va } \rho_y^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}} \quad (3)$$

bir vaqtda bajarilsa u holda texnologik jarayon stabil bo'ladi.

(3) matematik modelning parametrlari sonli usullarga asosan taqribiy topiladi. Bu ishlar real holatda IV–bobda dasturiy majmua yordamida amalga oshiriladi.

$\rho_x - \rho_y$ – nazorat karta chegarasini aniqlash:

1) Smirnov taqsimoti kvantillari jadvalidan $k_{0,99}^c$ ni aniqlab \sqrt{n} ga bo'lib, UCL_{ρ^c} ni aniqlaymiz va Dekart koordinatalar sistemasida nazorat kartaning yuqori chegarasini ($UCL_{\rho_x} = UCL_{\rho_y}$) chizamiz;

2) $n \geq 20$ da $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlardagi $(\overline{X}, \overline{Y})$ tanlanmalar olamiz va har bir koordinatasi bo'yicha Smirnov nazorat kartasini quramiz.

Texnologik jarayon stabiligini aniqlovchi ρ_x^c va ρ_y^c larning qiymatlarini aniqlash:

3) 2)dagi birinchi koordinata bo'yicha tanlanmalarni quyidagicha ajratib olamiz: X dan X^* variatsion qator tuzamiz. So'ng o'rta qiymat \overline{X}_n va S_n larni aniqlaymiz;

4) 2)dagi ikkinchi koordinatalar bo'yicha tanlanmalarni quyidagicha ajratib olamiz: Y dan olingan $Y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$ tanlanmadan $Y^* = (y^*_1, y^*_2, \dots, y^*_n)$ variatsion qator tuzamiz. So'ng \overline{Y}_n va S_n larni aniqlaymiz;


5) texnologik jarayon stabiligini aniqlovchi ρ_x^c larni $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlarda hisoblaymiz va ρ_x ning qiymatlarini Dekart koordinatalar sistemasida belgilaymiz.

6) texnologik jarayon stabiligini aniqlovchi ρ_y^c ni $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlarda hisoblaymiz va ρ_y ning qiymatlarini Dekart koordinatalar sistemasida belgilaymiz.

Texnologik jarayonning stabiligini tahlil qilish:

7) agar $t = \overline{1;l}$ birlik vaqtlarda $\rho_x^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}}$ va $\rho_y^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}}$ shu munosabatlar o'rinli bo'lsa texnologik jarayon stabil bo'ldi aks holda nostabil bo'ladi.

Quyida (3) matematik modelning namunaviy diagrammasini keltiramiz. Bunda texnologik jarayonning stabiligining tahlili rasimga mos ravishda keltirilgan.



4-rasm. $\rho_x - \rho_y$ nazorat karta MM diagrammasi.

Rasmda yuqoridagi (3) tengsizlikni qanoatlantiruvchi nuqtalar zangori siniq chiziq bilan, agar qanoatlantirmaydiganlari ham bo'lsa qizil siniq chiziq bilan belgilangan. Yashil chiziq stabil, qizil chiziq nostabil texnologik jarayonni ko'rsatadi. Bunda yuqoridagi rasm 1-komponenta bo'yicha jarayonning stabilligini, pastdagisi 2-komponenta bo'yicha jarayonning stabilligini ko'rsatadi.

(3) matematik model dissertasiyaning 3.2-paragrafda komponentalarni bog'liqligini tekshiruvchi r –nazorat kartani aniqlovchi quyidagi teorema asoslangan. Bunda nazorat kartaning nazorat qilinuvchi miqdori $g[(\bar{x}, \bar{y})] = r(x, y)$ kabi bo'ladi.

3.4-teorema. $\alpha = 0,01$ va $H_0: \rho(x, y) = 0$ gipoteza o'rinli bo'lsa, u holda $t = \overline{1; l}$ birlik vaqtlarda $LCL_r < r(x, y) < UCL_r$ bo'lsa, u holda X va Y komponentalar bog'liqmas bo'ladi,

$$\text{bunda } r(x, y) = \frac{\sum_{k=1}^n (X_k - \bar{X}_n)(Y_k - \bar{Y}_n)}{\sqrt{\sum_{k=1}^n (X_k - \bar{X}_n)^2 \sum_{k=1}^n (Y_k - \bar{Y}_n)^2}} \quad \text{va} \quad \begin{cases} LCL = \pm \frac{t(0,01; n-2)}{\sqrt{n-2+t^2(0,01; n-2)}} \\ UCL \end{cases}$$

Sistema komponentalarining bog'liq bo'lib qolsa, u holda texnologik jarayonning stabilligini aniqlovchi matematik model quyidagicha bo'ladi:

Texnologik jarayon stabilligining uchlangan $\rho_x - \rho_y - r^*$ NK matematik modeli:

Agar $n \geq 20$ bo'lib $t = \overline{1; l}$ birlik vaqtlarda $(\bar{X}, \bar{Y}) = \{(x_1, y_1); (x_2, y_2), \dots, (x_n, y_n)\}$ tanlanmalar uchun quyidagi munosabatlar bir vaqtda bajarilsa:

$$\rho_x^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}}, \rho_y^c < \frac{k_{0,99}^c}{\sqrt{n}} \quad \text{va} \quad LCL_{r^*} = th(z_1) < r(x, y) < th(z_2) = UCL_{r^*} \quad (4)$$

u holda texnologik jarayon stabil bo‘ladi. Bunda $z_1 = \frac{1}{2} \ln \frac{1+\rho_0}{1-\rho_0} - \frac{\psi(1-\alpha)}{\sqrt{n-3}}$, $z_2 = \frac{1}{2} \ln \frac{1+\rho_0}{1-\rho_0} + \frac{\psi(1-\alpha)}{\sqrt{n-3}}$

(4) matematik modelning parametrlari sonli usullarga asosan taqribiy topiladi. Bu ishlar real holatda IV–bobda dasturiy majmua yordamida amalga oshiriladi.

Ushbu matematik model diagrammasini hosil qilish va texnologik jarayonning stabiligini aniqlash sonli algoritmini ishlab chiqilgan. Bu algoritm asosida dasturiy majmua yaratilgan.


$\rho_x - \rho_y$ nazorat karta chegarasini aniqlash (3) modeldagi kabi amalga oshiriladi.

r^* – nazorat karta chegarasini aniqlash:

$LCL_{r^*} = th(z_1)$ va $UCL_{r^*} = th(z_2)$ larni hisoblab Dekart koordinatalar sistemasida chizamiz.

Texnologik jarayonning stabiligini tahlil qilish:

agar yuqoridagi (4) tengsizlik bajarilsa texnologik jarayon stabil bo‘ladi aks holda nostabil bo‘ladi.



5-rasm. $\rho_x - \rho_y - r^*$ nazorat karta matematik model diagrammasi.

Rasmda yuqoridagi (4) tengsizlikni qanoatlantiruvchi nuqtalar zangori siniq chiziq bilan agar qanoatlantirmaydiganlari ham bo'lsa, qizil siniq chiziq bilan belgilangan. Yashil chiziq stabil, qizil chiziq nostabil texnologik jarayonni ko'rsatadi. Bunda yuqoridagi rasm 1-komponenta bo'yicha jarayonning stabilligini, o'rtadagisi 2-komponenta bo'yicha jarayonning stabilligini va pastdagisi bu komponentalarning chiziqli bog'liqligini aniqlaydi.

(4) matematik model dissertasiyaning 3.2-paragrafda komponentalarni bog'liqligini tekshiruvchi r^* –nazorat kartani aniqlovchi quyidagi teorema asoslangan. Bunda nazorat kartaning nazorat qilinuvchi miqdori $g[(\bar{x}, \bar{y})] = r(x, y)$ kabi bo'ladi.

3.5-teorema. Tayin n va $\alpha = 0,005$ bo'lib $H_0: \rho(X, Y) = \rho_0$ gipoteza o'rinli bo'lsin. U holda r^* –nazorat karta nazorat qilinuvchi miqdori $r(x, y)$ va chegaralari

$LCL = th(z_1); UCL = th(z_2)$ ga teng bo'ladi. r^* –nazorat kartaning quvvat funksiyasi $G(r) = 1 - \Phi\left(\frac{argth(UCL) - a(r)}{\sigma}\right) + \Phi\left(\frac{argth(LCL) - a(r)}{\sigma}\right)$ ga teng. Bunda

$\Phi(*) \sim N(0,1)$ –normal taqsimot, $a(r) \approx \frac{1}{2} \ln \frac{1+r}{1-r} + \frac{r}{2(n-3)}$, $\sigma \approx \frac{1}{\sqrt{n-3}}$; $n \geq 20$.

3.4-paragrafda qurol ishlab chiqarish zavodining gilzalar tayyorlash texnologik operatsiyasida gilzaning qo'nuvchi nominal diametrini qo'yimini nazorat qilish operatsiyasidagi texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashda (4) matematik modelidan foydalanish amalda ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning «**Texnologik jarayonning stabilligini aniqlovchi dasturiy majmua va keyslar tahlili**» nomli IV-bobida zavod amaliyotida paydo bo'ladigan muammolarni statistik usullar bilan tahlil qilish hamda muammoni bartaraf qilish yechimlari keltirilgan.

4.1-paragrafda Texnologik jarayonlarni tahlil qilish va boshqarishda «Deming-Shuxart sikli» (Plan-Do-Study (Check)-Act) haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Bizning natijalarimiz siklning ichida ma'lum bir vazifalarni bajarishda ishlatiladi.

4.2-paragrafda bir va ikki o'lchamli normal taqsimot bilan modellashtirilgan texnologik jarayonlarni stabilligini aniqlashga ko'maklashuvchi dasturiy majmuaning funksional imkoniyatlari keltirilgan. Ushbu yaratilgan dasturiy majmua obyektga yo'naltirilgan Delphi muhitida, foydalanuvchi uchun qulay interfeysda tuzilgan. Ishlab chiqilgan dasturiy majmua MS WINDOWS operatsion tizimining barcha versiyalariga mos tushadi.

Dasturdan ishlab chiqarishda texnologik jarayonning stabilligini aniqlashda, mashinasozlik zavodlarining ayrim sexlari va qo'shma korxonalarda ishchi hodimlar, muxandis va menejerlar hamda shu yo'nalishda ilmiy ish olib borayotgan izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

4.3-paragraf va 4.4-paragraflarda avtomobil ishlab chiqarish zavodining payvandlash va bo'yash sexlarida paydo bo'lgan va markazlashgan tokarlik stanogida gilzalar (qurol gilzasi, slindr gilzasi kabi) ishlab chiqarishdagi

muammolardan hosil bo'lgan keyslar tahlil qilinadi. Dissertatsiyada bu keyslarning asosan statistik yechimlari keltirilgan. Bu yechimlardan texnik qarorlar ishlab chiqish, albatta muhandislar bilan hamkorlik qilishni talab qiladi. Bunda foyda harajatlardan ancha yuqori bo'ladi.

XULOSA

«Normal taqsimot va nazorat kartalar asosida texnologik jarayonlarni stabilligini modellashtirish» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Normal taqsimot bilan modellashtirilgan texnologik jarayonlarning stabilligini aniqlashning nazorat kartalar usuli U.Shuxartning turg'unlikni ta'minlagan holda stabillikni aniqlash usulini potensial imkoniyatlarini oshirganligini asoslab berildi.
2. Asimmetriya va eksess, Kolmogorov hamda Smirnov kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini bitta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqildi;
3. Smirnov va Styudent kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini ikkita ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqildi;
4. Smirnov va Fisher kriteriyalari yordamida texnologik jarayonning stabilligini uchta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalariga asoslangan matematik modellar ishlab chiqildi;
5. Texnologik jarayonning stabilligini bitta va ikki-uchta ko'rsatkich bilan aniqlovchi nazorat kartalarga asoslangan matematik modellarga asosan sonli algoritmlar ishlab chiqildi.
6. Ishlab chiqilgan matematik modellarni amalda ishlatishni osonlashtiruvchi dasturiy majmua yordamida texnologik jarayonlardagi ba'zi keyslar tahlil qilindi.
7. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari «UZ Auto Motors» AJdagi Payvandlash sexida ikki panel orasidagi qo'yimni nazorat qilish operatsiyasida texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashga tadbiiq etildi.
8. «UZ Auto Motors» AJdagi Bo'yash sexida avtomobil korpusini gruntovka qilish operatsiyasidagi texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashga tadbiiq etildi.
9. Qurol ishlab chiqarish zavodining gilzalar tayyorlash texnologik operatsiyasida gilzaning qo'nuvchi nominal diametrini qo'yimini nazorat qilish operatsiyasidagi texnologik jarayonlarning stabilligini ta'minlashga tadbiiq etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2021.Т.142.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ЗАХРИДИНА МУХАММАДА БОБУРА**

АБЛАЗОВА КАМОЛА САХИБОВНА

**МОДЕЛИРОВАНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ
ПРОЦЕССОВ НА ОСНОВЕ НОРМАЛЬНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ И
КОНТРОЛЬНЫХ КАРТ**

05.01.07– Математическое моделирование. Численные методы и комплексы программ

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ

ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.1.PhD/Т3646.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете им.З.М.Бобура. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.airi.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Ахмедов Сахиб Акбарович
кандидат физико-математических наук, доцент

Официальные оппоненты: Рахмонов Зафар Равшанович
доктор физико-математических наук, доцент

Мурадов Фаррух Абдукахарович
доктор философии (PhD) технических наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация: Ташкентский государственный транспортный университет

Защита диссертации состоится «27» декабрь 2024 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.13/30.12.2021.Т.142.01 при Научно-исследовательском институте развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. (Адрес: 100125, г. Ташкент, М.Улугбекский район, Буз-2, дом 17А. Тел.: (99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института развития цифровых технологий и искусственного интеллекта (регистрационный номер № _____). (Адрес: 100125, г. Ташкент, М.Улугбекский район, Буз-2, дом 17А. Тел.: (99871) 263-41-98).

Автореферат диссертации разослан «15» декабрь 2024 года.
(протокол рассылки № 19 от «10» декабрь 2024 года.).



Н. Равшанов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Ф.М. Нуралиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Э.Ш. Назирова
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор технических
наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире сегодня одной из задач, имеющих научное и практическое значение, является повышение качества продукции путем обеспечения стабильности технологического процесса. Актуальным является вопрос разработки математических моделей, численных алгоритмов и программных средств, предназначенных для решения практических задач этой обширной сферы деятельности. Такими вопросами занимаются научно-технические работники в промышленно развитых странах мира, включая США, Японию, Китай, Германию, Корею, Великобританию, Российскую Федерацию и др.

На развитых предприятиях мира производится большое количество однородной продукции. Разработано несколько теоретических и практических моделей определения стабильности технологического процесса, направленных на повышение качества таких изделий. В настоящее время актуальными являются вопросы совершенствования модели контрольных карт при исследовании стабильности технологического процесса, создание численных алгоритмов и программных средств.

В нашей республике вышеуказанные проблемы возникли с приходом совместных предприятий. Для определения стабильности технологического процесса на этих предприятиях используются стандарты ISO или стандарты некоторых стран. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы: «...снижение потерь в отраслях и повышение эффективности использования ресурсов, прогнозирование... как отмечается, «² сокращение количества некачественной продукции в производстве требует дальнейшего совершенствования технологий разработки программных средств, направленных на повышение эффективности деятельности предприятий и заводов за счет предоставления методологии математического моделирования и вычислительного эксперимента, а также возможностей анализа, оперативного мониторинга и прогнозирования.

В Указах Президента Республики Узбекистан ПП №2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования»; ПП №4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики»; ПП № 3151 от 27 июля 2017 года «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и секторов экономики в повышении качества подготовки высокообразованных специалистов», УП №5847 от 9

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-6 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

